

BOBURNING HINDISTONGA YURISHI TAVSIFI MANBA VA TADQIQOTLARDA

Kamolov Jahongir Mamasidiqovich

TDPU. Tarix fakulteti dotsenti v.b, PhD

Yomonqulova Sevinch

TDPU. Tarix fakulteti I bosqich talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqolada Zahriddin Muhammad Boburning Hindistonga yurishi voqealari turli manbalar orqali ochib berishga harakat qilingan. Maqolada shuningdek O'rta Osiyo, Avg'oniston va Hindistonning geografik tavsifi, toponimik joy nomlari va voqealar rivojida shaxslarning o'rni tahlil qilib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Sarkarda, Hindiston, Boburiylar, jang, yurish, Gulbadanbegim, Ibrohim Ludiy, lashkar, manba, tadqiqot, memuar, Boburnoma, Humoyunnoma.*

Hindiston tarixida 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasiga nafaqat davlatchiligidan temuriylarning davomchilari, balki Hindiston tarixida ham muhim o`rin tutgan suloladir. Zero bu sulolaning Hindistondagi hukmronlik davriga buyuk shaxsler ijobjiy baho beradi. Xususan, "Ingliz olimi Valdemar Xansen 1986 yil Dehlida chop etgan Tovus toj yoki mug`ullar sultanatining qismati kitobida Boburiylarning Hindistondagi hukmronligiga shunday tarif beradi. Hindistonning sakkiz ming yillik tarixini bir tovus misol deb olsak, shu ko`p ming yillik tarixda Boburiylarning 332 yillik davri shu tovusning gultojidir" .

Tarixda ko`plab shohlar o`tgan bo`lib, ularning har birini o`ziga yarasha tarixda o'rni bor. Shunday podshohlar o`tganki ularning qilgan buyuk ishlari va ezgu harakatlari hatto dushmanlari tomonidan ham e`tirof etilgan. Bobur shunday buyuk shaxslardan biridir. O`z ona yurtida amalga oshira olmagan yagona davlatchilik va bunyodkorlik ishlarini Hind fathidan keyin afsonaviy diyorda amalga oshirdi. Uning avlodlari yaratgan buyuk me`moriy obidalar bugun ham dunyo ahlini Hindistonga chorlamoqda. Hindni zabit etish Bobur Mirzoni buyuk orzularidan biri bo`lib, 1526 yilda Bobur bu orzuni amalga oshirdi. Tarixda Boburning Hind diyoriga yurishi ko`plab manbalarda qayd etilgan bo`lib, ulardagagi voqelik bir biriga yaqin faqat manbalarda turli subyektiv qarashlar bilan keltirilgan. Dastavval Boburning memuar asari Boburnomada bu yurish tavsfi quyidagicha keltiriladi.

Boburnoma Boburning shoh asari bo`lib, o`z davrida u Voqoye, Tuzuki Boburiy, Voqeanoma, Taboqoti Boburiy, Tavorixi Boburiy va Voqioti Boburiy nomlari bilan atalgan. Boburning o`zi esa bu asarini Voqoye va Tarix degan nomlar bilan eslab o`tgan. Asar o`zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy, memuar va tarixiy-ilmiy asar hisoblanadi. Boburnomada 1494-1529 yillarda Marakziy Osiyo, Avg'oniston va

Hindistonda sodir bo`lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma yil o`ta aniqlik bilan bayon qilingan bo`lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosa bog`liqdir.

Boburnomada Bobur tomonidan geografik, toponomik va tarixiy voqealarni tavsifi boy va yorqin berilgan bo`lib, xususan uning Hind o`lkasini iqlimi, aholisi, shuningdek, Hindga yurishi voqealari nihoyatda aniq bayon qilingan. Bobur bu voqealarni quyidagicha tasvirlab o`tadi. “Hindiston birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimda joylashgandir. U to`rtinchi iqlimga kirmaydi. Juda ajoyib mamlakatdir. Bizning yarlarga solishtirganda mutloqo o`zga bir olam. Tog` va daryolari, o`rmon va sahrolari, Shahar va viloyatlari, hayvon va o`simliklari, odamlari va tili, yomg`iri va shamoli – hammasi boshqacha, biznikiga o`xshamaydi. Kobul tarafdagagi issiq viloyatlar qaysidir jihatlari bilan Hindistonga o`xshab ketsada, ba`zi jihatlari mutloqo farq qiladi” .

Bobur bu voqealar bayonidan Hind o`lkasini tavsifini mukammal bilganligi va bu o`lkada duch kelishi mumkin bo`lgan tabiat va iqlim injiqqliklariga puxta tayyorlanganligini ko`rishimiz mumkin. Bobur taqdir taqozosi bilan ona yurti Movorounnahrdan ketganidan so`ng, asosiy e`tiborini Avg`oniston va Hindiston o`lkalarida kuchli davlat barpo etishga qaratdi. Dastavval Kobul va uning atroflarini egallab, u yerga ukasi Nosir Mirzoni qoldirib, o`zi Hind safariga chiqadi. Hind o`lkasiga yurish va u yerda davlat qurish Bobur Mirzoni orzusi bo`lib, o`zi bu haqida quyidagicha bayon qiladi. “hijriy 910 (milodiy 1504-1505) yili Kobul egallangandan buyon Hindistonne qo`lga kiritishni orzu qillardim. Goh beklarning aqli noqisligi, go hog`a-inilarimning, qarindosh-urug`ning qo`llab quvvatlamasliklari bois Hindistonga yurishga erisha olmagan edim. Nihoyat bunday to`sqliar qolmadni. Bek va amaldorlarimdan hech kim mening maqsadimga qarshi bir so`z ayta olmadi” . Hindiston orzusi buyuk tarixiy hukmdorlar kabi Boburni ham o`ziga tortgan va bu orzu uning maqsadlariga aylanganligi nihoyat Bobur tomonidan Hind safarini boshlanganligi va bu boradagi ishlar Kobul zabit etilgan lahzalardayoq rejalahtirilgan edi. Huddi shunday ma`lumotlarni biz yana bir manbada- Boburning qizi Gulbadanbeginning “Humoyunnoma”sida uchratamiz. Gulbadan beginning Humoyunnomasi o`sha davr tarixini yoritishda muhim manba bo`lib uni Boburnomani mantiqiy davomi desa ham bo`ladi. Gulbadanbegin Humoyunnomada asarida otasi Boburning Hindistonga safarini quyidagicha bayon etadi. “....doim Hindistonga kirsam deb havas qillardilar, lekin amirlarning rayi sustligi va aka ukalarining rozi bo`lmaganligi sababli bu ishga erisha olmasdi. Nihoyat aka ukalar ketib, amirlardan ularning maqsadiga qarshi gapira oladigan bir kimsa qolmagach, hijriy 925 sanada (1519 yil)da ikki uch hamladan keyin jang bilan Bajaurni oldilar” .

Boburnomada ham Humoyunnomada ham deyarli ma`lumotlar o`xshash. Yuqoridagilardan ma`lum bo`lishicha Hind safari 1519 yildan boshlangan. Chunki ungacha bazi amirlar va beklarning qarshiligi va yetarlicha kuchning mavjud emasligi, shuningdek bu paytda ichki dushmanlar to`la bartaraf etilmaganligi ham bu yurishga to`sqinlik qilib turgan edi.

“Hijriy 925 (1519 yil) i lashkar tortib, Bajaurni kuch bilan ikki-uch garida – bir soatga ham qolmay olib, elini qatlom qilib, Bhiraga keldik. Bu yerni talon-taroj qilmadik. Eliga moli omon-solib (mol berganni evaziga xavfsizligini taminlab) 400 ming shoxruhiyni pul va mol holida olib, askar v aba`zi navkarlar soniga qarab ulashib, Kobulga qaytib keldik”.

Bobunomada berilgan ushbu ma`lumotlardan bilish mumkinki Bobur Hindistonning shimoliga, xususan Bajaur hududlariga yurish qilganligi va bu yurishlar Dehli sultonligiga boradigan yo`llar xavfsizligini ta`minlash va strategik maqsadlarga qaratilgan edi. Yana ko`rish mumkinki Bobur zabit etilgan hududlarni talon taroj qilmagan moli omon solig`i bilan cheklangan.

Gulbadanbeginning Humoyunnoma asarida Panipatgacha bo`lgan yurishlar voqealari quyidagicha tasvirlangan. 925 hijriy sanadan keying yeti-sakkiz yil orasida bir necha marta Hindiston tomonga lashkar tortib, har martasi bir viloyat yoki pargana (xiroj olinadigan yer)ni jumladan, Bhira, Bajaur, Siyolkut, Dibolpur, Lohur va boshqalarni oldilar.

Humoyunnomadagi voqealar bayonidan bilish mumkinki Bobur Mirzo Dehli sultonligiga olib boradigan hududlarni zabit etib, bu yerlarda o`ziga tayanch hududlar yaratish yo`lidan borgan. Shu bois yuqoridagi shaharlarni bo`sundirib u yerga o`z noiblarini qoldirgan.

Hijriy 925 dan boshlab 932 yilgacha Hindistonni egallahsga astoydil kirishib, yetti-sakkiz yil ichida besh marta qo`shin tortdik. Beshinchi safar tangri taolo o`z fazlukarami bilan sulton Ibrohimdek dushmani qahru-g`azabiga olib yakson etti, Hindistondek katta mamlakatni bizga tuyassar qildi va bo`sundirdi.

Xuddi shunday ma`lumot Humoyunnomada ham keltiriladi. “.....beshinchi martasida g`urrat ul safar oyi 932 hijriy sana (1525 yil) juma kuni Dehi Yaqubda manzil tutib undan Hindistonga yo`l oldilar. Lohur, Sirhind va yo`l ustidagi har viloyatni qo`lga kiritdilar.”

Humoyunnomada Panipat janggi voqealariga shunday to`xtalingan. “Rajab oyining sakkizinch 932 hijriy sana (1526 yil 20 aprel) juma kuni Panipatda sulton Ibrohim binni sulton Iskandar binni Bahlul Ludiya qarshi saf tortdilar. Allohning inoyati bilan g`olib keldilar.”

Shu joyda Gulbadanbeginim har ikki tarafning harbiy qudrati va qo`shin soni haqida ham qiziqarli ma`lumotlar keltirib o`tadi va bu ma`lumotlar ba`zi tadqiqotlarda ham turlicha keltirilgan. Xususan raqamlarda farqlar mavjud.

“Bu fath faqat Allohning marhamati ila qo`lga kiritildi. Negaki sulton Ibrohimning 180 ming otliq askari va bir yarim minggacha mast fellari bore di. Podshoh hazratlarining Lashkari esa savdogarlar va yaxshi yomon bilan birga o`n ikki ming kishi edi. Janggi yaroqli askar bor yo`gi olti-yetti ming kishi edi.”

Voqeoti Boburda Boburning o`zi askarlari adadini shunday keltiradi. “biz biriunchi marta Bhiraga kelganimizda bir ming besh yuz, ko`pi bilan ikki ming kishi edik.

Beshinchi bor kelganimda sulton Ibrohimni yengib, Hindiston mamlakatini fath qildim. Hindistonga yurishda hech qachon buncha lashkar bilan kelinmagandi. Navkar va xizmatkorlar butun qo'shin bilan birga bo'lganlarning soni o'n ikki ming kishi deb ro'yxatga olindi"

Yuqoridagi har ikki manba bergan ma'lumotlar deyarli bir xil bo'lib, Boburning 12 ming Ibrohim Ludiyning 100 mindan oshiq lashkarga ega ekanligi qayd etilgan.

Keyingi tadqiqotchilar bu voqealar bayoniga quyidagicha sharh berishgan.

Tarixchi tadqiqotchi Nizomiddinov "Buyuk Boburiylar tarixi (XVI-XIX) asr" asarida aytadiki jangda qatnashgan Bobur va Ibrohim qo'shinlarining soni to'g'risidagi ilmiy nashrlarda zikr etilgan raqamlarda ba'zi farqlanishlar ko'zga tashlanadi, masalan:

1. U.Rashburk hisobida Bobur qo'shining umumiyligi soni 8000 askardan oshmagan

2. A.L. Shrivastavning yozishicha Bobur Panipatda 25 ming askar bilan janggi kirgan.

3. L.P.Sharma ma'lumoticha Ibrohim qo'shining soni 100 ming emas 40 ming bo'lgan degan ma'lumorlarni keltirishgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilar asosan hind tadqiqotchilari bo'lib, ular iloji boricha Boburning yuksak g'alabasini pasaytirib ko'rsatishga harakat qilishgan. Nima bo`lganda ham tadqiqotlardagi raqamlar manbalardan juda katta farq qilmasligini ko'rish mumkin.

Zahriddin Muhammad Boburning Hindistonni zabit etishi bilan u yerda 332 yillik katta bir imperianing tamal toshi qo'yildi. Bobur shaxsiyati va uning Hindda qilgan buyuk ishlarini hatto hind tarixchilari va siyosatchilari ham e'tirof etishgan.

Abulfazl Allomiy tomonidan yozilgan "Akbarnoma" kitobida Boburning buyuk saxiyligi takidlangan. Xususan, "Hindistondagi har bir kichkina va buyuk kishi qirolning xayrlihohligi va rahm-shafqatini boshidan kechirgan" deyishadi. Bobur Mirzo Hindda bir qator xurofiy odatlarni bekor qilib, qaysidir ma'noda u yerga islom dini va shariat arkonlarini olib kirdi. Shuningdek mahalliy aholini milliy dinlarini ham hurmat qilgan holda e'tiqodga taziyiqlar sodir qilinmadni. Hindistondagi yuksak me'morchilik an`analari shubhasiz uning nomi bilan boshlanadi. Bugun Boburiylar bunyod etgan ko'plab me'moriy inshoatlar Hindistonga millionlab turistlarni jalb qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamsutdinov R, Abdullayev F, Abdullayev M. Buyuk Boburiylar sultanati. Andijon: Meros. 1995. B-9.
2. Z.M.Bobur. Boburnoma. T: O'qituvchi. 2008. B-204
3. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. T: O'zbekiston. 2016. B-11.
4. N.G'.Nizomiddinov. Buyuk Boburiylar tarixi (XVI-XIX) asr. T: Fan va texnologiyalar. 2012. B-75.
5. Abu Fazl Allomiy. Akbarnoma. T: 2003. B-150.